

SHAKLLARDA PLEONAZM VA TEJAMKORLIK

SamDU talabasi - N. Oltiboyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada pleonazm, ya'ni tilimizdagi qo'shimcha va so'zlarning ortiqchaligi va uning nutqimizga ta'siri haqida hamda tejamkorlik tamoyillari va nutqni to'g'rilash to'g'risida gap boradi.

Kalit so'zlar: pleonazm, tejam, tilshunoslik, affiks, leksema, til, nutq, muammo, yechim.

Annotation: This article discusses pleonasm, the excess of words and phrases in our language, and how it affects our speech, as well as the principles of economy and speech correction.

Key words: pleonasm, savings, linguistics, affix, lexeme, language, speech, problem, solution.

Аннотация: В этой статье рассматриваются плеоназмы, избыток слов и словосочетаний в нашем языке и то, как это влияет на нашу речь, а также принципы экономии и коррекции речи.

Ключевые слова: плеоназм, сбережения, языкознание, аффикс, лексема, язык, речь, проблема, решение.

Til ijtimoiy hodisa, insonlarning asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Suhbatdoshga tilsiz fikrimizni bayon qilib berish juda mushkul. Shu sababli ham tilshunoslikdagi har bir muommalar, qonun-qoidalar tilshonos olimlar tomonidan hal qilinib, o'rganilib kelinmoqda. Lekin haligacha hal qilinmagan, yechim topilmagan muammolarimiz bor. Bulardan biri fanimizdagi tejamkorlik va pleonazm mavzusidir. Pleonazm – bu tilshunoslikdagi to'liq o'rganilmagan muammoli masala. Barcha tillarda mavjud bo'lgan bu atama ortiqchalikni bartaraf etish uchun qo'llaniladi. Tejamkorlik esa pleonazmning aksi hisoblanadi, ya'ni ortiqchalikni bartaraf etish, tejash hisoblanadi.

Ushbu muammo tildagi katta xatoliklarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Shu boisdan ham uni bartaraf etish lozim bo'ladi. Pleonazm hodisasi keng ma'noda ishlatiladi. Uning turlari ham ko'pdir. Misol tariqasida: qo'shimchalardagi va so'z qo'llash va hattoki gaplarda ham ko'p hollarda uchraydi. Ularning kelib chiqishiga sabablar ham alohida. Birinchi navbatda qo'shimchalardagi pleonazm ko'p uchraydi. Bir so'zda qo'shimchalarni ko'p qo'llash yoki bir xil qo'shimchalarning takrorlanishi affiksial pleonazm deyiladi. Ba'zi olimlar faqatgina bir turga mansub qo'shimchani takrorlanishini pleonazm deb hisoblaydi. Masalan, "kelingizlar" so'zida ikkita egalik qo'shimchasi qo'shilgan. Boshqalari esa har qanday qo'shimcha, ya'ni bir turga mansub bo'lmagan qo'shimchani ham ketma ket, zich qo'llashni pleonazm deb qarashadi. Keyingi fikr ancha to'g'riroq, chunki ko'p qo'shimcha qo'llamasdan ham tejamkorlik bilan fikrni tushuntirib berish mumkin. Masalan: " ko'ramikanman"

soʻzining ôrniga "koʻramanmi" shaklida qoʻllash anchagina oson boʻladi. Birinchi koʻrinishdagi shaklida aytilishga ham, yozilishga ham qiyinchilik tugʻdiradi. Bu esa aholi savodxonligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shuning uchun ham qiyinchiliklarni bartaraf etish lozim.

Bundan tashqari qoʻshimchalarni qoʻllamasdan ham asosning oʻzidan ham fikrni bayon qilish mumkin. Bir yoʻla—bir yoʻlasi, bira toʻla—bira toʻlasi, bir vaqtlar—bir vaqtlari, bir zamon— bir zamonlari, birdan— birdaniga kabi soʻzlarni ishlatishda birinchi shakli ham ikkinchi shakli ham bir xil maʼno ifodalaydi. Lekin ikkinchi shakli koʻproq qoʻllaniladi. Bunda faqatgina tilimizni qiyinlashtiramiz xolos. Bu nafaqat oʻzbek tilida soʻzlashuvchi xalqlar uchun, balki oʻzbek tilini oʻrganuvchi boshqalar uchun ham ancha qiyinchilik tugʻdiradi. Til qanchalik oson boʻlsagina uni oʻrganish ham osonroq boʻladi. Bu kabi pleonazm hodisalari tilimizda talaygina. Buning asosiy sababi tilimizda qoʻshimchalar koʻp, soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali yangi soʻzlar yasaladi va asos bilan yasalma oʻrtasida bogʻliqlik boʻlishi, ammo yasalma boshqa yukni tashuvchi boʻlishi kerak." Kitob" soʻzi bilan "kitobxon" soʻzini olaylik. Yasalma boshqa yukni koʻtaryapti. Zarur— zaruriy oʻrtasida esa hech qanday farq yoʻq. Faqatgina tilni qiyinlashtirishga, chalkashlikka xizmat qiladi, xolos. Dorixona, mehmonxona soʻzlarida -xona qoʻshimchasi toʻgʻri qoʻllangan. Chunki dori narsani, dorixona esa oʻsha narsalar turadigan joyni ifodalayapti. Omborxona, yoyoqxona soʻzlarida esa -xona qoshimchasi orticha. Negaki -xona qoʻshimchasini qoshmasak ham shu maʼno chiqadi. Ogʻil, doʻkon, kulba soʻzlarini qoʻshimcha tarzda keltirish mumkin.

Ketma-ket kelgan qoʻshimchalarning baʼzilarini qisqartirish mumkin, ammo baʼzilarda buning imkoni yoʻq. Masalan, "asarning soʻzboshisi" soʻzida 2ta egalik qoʻshimchasi qoʻshilgan. Shundan bitta egalik kategoriyasini (-si) tushirib qoldirish mumkin. Biroq har doim ham bir xil yoki har xil turdagi affiks kelishidan qatʼi nazar koʻp qoʻshimcha kelsa bittasi olib tashlab, yoki qisqartirib boʻlmaydi. "Oʻqitir" soʻzida ikkita bir xil nisbat kategoriyasi mavjud. Ammo bittasini olib tashlasak koʻzlangan maʼno chiqmay qolishi mumkin. Har bir qoʻshimchaning oʻz vazifasi boʻladi. Biron bir vazifa bajarmasa, soʻzning maʼnosiga hech qanday taʼsiri boʻlmasagina u pleonazm hodisasi boʻladi.

Tejamkorlik pleonazning zidi hisoblanadi. Til birliklarini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali tejash hisoblanadi. Buning birinchi foydasi vaqtning tejash boʻlsa, ikkinchisi esa tildagi ortiqchalikni, qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Prof. Juliboy Eltazarov "Tildagi tejamkorlik tamoyili va qisqaruv" kitobida "Tildagi tejamkorlik tamoyilining mohiyati shundaki, u qisqa vaqt birligi mobaynida maksimum axborot uzatishni taʼminlaydi, tilning kommunikativ funksiyasini oshirishga koʻmaklashadi, til hamisha orticha narsalardan, yaʼni oʻziga xos boʻlmagan, axborot tashimaydigan va tushuntirishga koʻmaklashmaydigan soʻz, boʻgʻin va shakllardan holi boʻlishi kerak va shunga intiladi",— degan fikrlarni bildirib oʻtgan. Haqiqatan, ortiqchalik tilni

qiyinlashtirib yuborishi mumkin. Soʻzlovchiga ham tinglovchiga ham murakkablik tugʻdiradi. Koʻplab tilshunos olimlar bu haqida oʻz qarashlarini bildirib oʻtgan. Ammo bu muammoli bôlib kelmoqda. Hali toʻlaqonli oʻrganilmagan masalalardan biri boʻlib kelmoqda.

N. Mahkamov "Adabiy norma va pleonazm" oʻquv qoʻllanmasida pleonazning nafaqat qoʻshimchalarda, balki soʻz, hato gaplardagi holatlarni misol qilib keltirgan.

Pleonazning soʻzlardagi kelishi ham koʻp uchraydi. "Archa daraxti" birikmasini olaylik. Bunda daraxt soʻzi ortiqcha qoʻllangan. Chunki archaning mevasi yoki guli boʻlmaydi. Archa deyilishi bilanoq archa daraxti ongimizda paydo boʻladi. Shunga oʻxshash misollarni tilda juda koʻp uchratish mumkin. Yanvar oyi, qish fasli kabi. Bundan tashqari "qari chol", "qari kampir" deb ishlatamiz. Lekin bilamizki, chol bilan kampir yosh boʻlmasligini. Bundan koʻrinib turibdiki, qari soʻzi pleonazmni yuzaga chiqaryapti. Yana baʼzi xatoliklar borki bir soʻzni ikki marotaba aytamiz. "Qora siyoh" birikmasining maʼnosida eʼtibor bersak ikki marotaba qora deymiz, chunki siyohforschada qora degani. "Bosh -oyoq sarpo", "lahm goʻsht" birikmalari ham xato qoʻllaniladi. Sarpo soʻzining maʼnosi forskada sar— bosh po—oyoq degani. Lahm soʻzi esa arab tilidan kirib kelgan, goʻsht degani. Oʻzi lahm goʻshtni bildiradi biz yana uning yoniga goʻshtni qoʻshib aytamiz. Lekin "lahm" deganda oʻzbek tilida suyaksiz, yumshoq goʻsht tushuniladi. Shunday boʻlsada "lahm goʻsht" demasdan "suyaksiz goʻsht" yoki "yumshoq goʻsht" deb oʻz tilimizdagi soʻzlardan foydalansak nutqimiz toʻgʻri boʻladi. "Sarpo" soʻzining oʻrniga ham "kiyim" ni qoʻllasak xato qilmagan boʻlamiz. "Xarsangtosh" soʻzini ham olaylik. "Xarsang" oʻzi "katta tosh" maʼnosini beradi. Lekin unga yana bitta toshni qoʻshib aytamiz. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi ushbu gapda pleonazmning bir koʻrinishi mavjud. "Uning xarsangtoshida egar ham tayyor edi". Bundan koʻrinadiki, koʻp soʻzlarni tilimizda xato qoʻllaymiz. Mahmud Qoshgʻariy oʻzining "Devonu lugʻotit-turk" asarida chet soʻzlarni qoʻllashni qoralagan. Shu tilda soʻzning ayni muqobili boʻlsa oʻz tilidagi soʻzdan foydalanish kerakligini aytib oʻtgan. Mahmud Qoshgʻariy aynan shunday xatoliklar kelib chiqishini koʻzda tutgan boʻlsa ajab emas.

Pleonazning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri boshqa tillardan qoʻshimcha va soʻzlarning kirib kelishi va uni notoʻgʻri qoʻllashda ekan. Yuqorida soʻzlarni koʻrib oʻtdik. Bu kabi qoʻshimchalar ham bir talay. Xususan, -lar koʻplik qoʻshimchasida koʻp uchraydi. Arab tili orqali fors tilidan kirib kelgan:

- axborot— axborotlar;
- taʼlimot— taʼlimotlar
- maʼlumot— maʼlumotlar
- taqsimot— taqsimolar
- taqdimot— taqdimotlar
- taʼminot— taʼminotlar

kabi soʻzlardagi -ot qoshimchasini qoʻshish orqali ikki marotaba koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilmoqda. Arab tilida axbor soʻzining oʻzi koʻplikni ifodalaydi. Forslar unga -ot ni qoʻshib koʻplikda ishlatadi. Oʻzbek tilida unga yana bir koʻplikni -lar ni qoʻshamiz. Rasmiy va ilmiy hujjatlarda ham shu holatda xato qoʻllaymiz. Ayniqsa gazeta va televideniya koʻp uchraydi. Til doimo aniqlikka intiladi, shunday ekan bunday xatoliklarni tuzatish lozim.

Umuman olganda, pleonazmni koʻp hollarda chetdan kirib kelgan qoʻshimcha va soʻzlarda uchratar ekanmiz. Albatta, bir til boshqa bir tilga aynan mos kelmaydi. Bir tildagi bir necha asosli asosli soʻz boshqa tilda bir asos bilan ham ifodalanishi mumkin. Shuning uchun ham xatoliklar kelib chiqadi. "Xarsangtosh" buning yorqin dalilidir.

Pleonazmning oldini olishning asosiy yoʻllaridan biri boshqa tillardan emas oʻz tilimizdagi soʻzlardan foydalanishdir. Bunda nafaqat xato-kamchiliklarsiz, ortiqchaliksiz nutq hosil qilinadi, balki tilimizning ravnaqiga ham hissa qoʻshgan boʻlamiz. Tilning kelajagi uchun masʼuliyatni chuqur anglashimiz lozim. Maʼlumki, hozirda koʻp foydalanilayotgan va internet tili boʻlgan tillargina yashab qolyapti. Shu boʻladi birinchi navbatda tilimizdan oʻzimiz toʻlaqonli va toʻgʻri foydalanishimiz lozim boʻladi. Keyingi navbatda undagi ortiqchaliklarni bartaraf etib, osonlashtirib boshqa xalqlar oʻrganishi uchun zamin yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eltazarov J. Tildagi tejamkorlik tamoyili va qisqaruv Samarqand 2004-yil.
2. Mahkamov N. Adabiy norma va pleonazm. Toshkent— "Fan" nashriyoti 1998-yil.
3. Aytmatov Ch. "Oq kema" qissasi. Gafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1970-yil.5-bet
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.B., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yoʻldosheva D.N. Hozirgi oʻzbek tili. Oʻquv qoʻllanma.—Tosh.: "Zebo Print" nashriyoti, 2021-yil. 160-162-b.